

SPORT O'YINLARI ORQALI KO'ZI OJIZLARDA O'ZIDAGI ISHONCHNI OSHIRISH

Shokirova Surayyo Zokirxon Qizi
ATMU Defektologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sport o'yinlari orqali ko'zi ojizlarda o'zidagi ishonchni oshirish haqida ma'lumot beriladi. Ko'zi ojizlarda sportni rivojlantirish jismoniy faollikni oshirish. Hayotga moslashtirish.*

Kalit so'zlar: *sport, ko'zi ojiz, aqliy psixik rivojlanish, futbol, musiqa, san'at, maxsus ta'lim tarbiya, jamoa.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab nogiron bolalarga maxsus ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirish yangi milliylik va o'z-o'zini anglash ruhida tarbiyalash o'qitish yangi darsliklar o'quv qo'llanmalari tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda bundan tashqari nogironlarni himoya qilish bo'yicha bir qancha buyruqlar va qarorlar tayyorlangan. Xalqimizning shu jumladan nogiron va nogiron bolalar, ularning jismoniy, aqliy psixik rivojlanishini yaxshilash hayotga moslashtirish yo'llarni ishlab chiqish ko'rsatilgan.

Ko'zi ojizlar maktabida har hil sport o'yinlari tashkillashtirilgan shular jumlasidan : fudbol shashka yugurish mo'ljal olish va boshqalar.

Ko'zi ojiz bolalar fudbolida bir jamoada 5 nafardan o'yinchi o'ynaydi bu o'yin maxsus tovushlarga asoslangan holda o'tqaziladi. To'pning ichidan maxsus shildiroq ovozi chiqadi. Har bir jamoada darvoza ortida murabbiylar turadi. To'pni olib borish jarayonida qarsak tovushi berib turadi. Shunga qarab o'yinchilar darvozaga to'pni yo'naltiriladi. Bundan tashqari ko'zlarda maxsus moslama bo'ladi. Sababi o'yinchilar to'qnashish jarayonida himoyalani uchun taqiladi. Bu ko'zi ojizlar fudboli har bir bo'lim 20 daqiqadan davom etadi. Undan tashqari fenalti tepish jarayonida umumiy fudbolida 11 metr dan tepilsa, ko'zi ojizlar 6 metr dan darvoza tomon fenalti yo'llanadi. Jarima tepish arafasida jamoa murabbiyi darvozaning har bir ustuniga maxsus temir moslama bilan urib va ovoz beradi va darvoza o'rtasida turgan holda ortidan qarsak tovush beradi. Shu orqali jarima yo'llanadi. O'yinchilar to'pni olish jarayonida ya-ya yoki men-men deb ovoz beradi. Shu orqali o'yinchi o'z sherigini tanidi va to'pni unga uzatadi.

Bundan tashqari musiqa san'at fan sport olimpiadalarda yuqori o'rinlarda egallab yaxshi natijalarga erishishmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ijtimoiy himoya ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish borasida davlat siyosatiga molik muammoning ijtimoiy himoya huquqiy negizi yaratildi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'grisidagi, "Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish to'grisidagi". " Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish "to'grisida qarorlar farmoyishlari qabul qilindi va amaliyotga kiritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxsus pedagogika P.M.Po'latova Toshkent 2005.
2. Qodirova F.U.Xusnuddinova Z.X.Tiflopedagogikaning umumiy masalalari. Toshkent,2023.